IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: IP73131172

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2025-yil 05-dekabr 05/12-4/1-10604-son

Oliy ta’lim tashkilotlariga

nusxasi*:* *Milliy Erasmus+ ofisiga*

Milliy Erasmus+ ofisining 2025-yil 02-dekabrdagi NEO 02-12-sonli xati muvofiq

Milliy Erasmus+ ofisining Vazirlikka yo‘llagan xatiga muvofiq tashkilot 2025-yilning 11-dekabr kuni Toshkent davlat agrar universitetida Erasmus+ Milliy axborot kunini o‘tkazishni rejalashtirmoqda.

Axborot kunining maqsadi 2026-yil uchun tanlovda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari ishtirok etishi mumkin bo’lgan barcha yo‘nalishlar bo‘yicha ma’lumot berish, yangi loyihalar bilan ommani tanishtirish, respublika oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari asosida respublikaning barcha viloyatlardagi oliy ta’lim muassasalari vakillari o‘rtasida aloqalar o‘rnatish va yangi loyiha g‘oyalarini muhokama qilish imkoniyatini yaratib berish, bundan oldin Erasmus+ loyihalarida qatnashmagan universitetlarga loyihani rivojlantirish bilan amaliy tavsiyalar berishni rejalashtirgan. Bundan tashqari, 2025-yil uchun tanlovda yutgan 6 ta CBHE loyihalari uchun tantanali qutlash marosimi tashkil etiladi. Tadbir to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar hamda kun tartibi ilova qilinadi.

Ushbu tadbirga qiziqish bildirgan Oliy ta’lim muassasasi talabalari hamda xodimlari **8-dekabrga qadar** quyida havoladan ro’yxatga o’tishlari so’raladi: https://forms.gle/rhq1TpQgkGJ9eRAi8

Ilova: *3 varaq.*

Kotibiyat boshlig’i **I.Nematov**

Ijrochi: X.Abdullayev
Telefon: (55) 520 08 08 (115)